

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUXITDINOVA NIGORA MEXRIDDINOVNA

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY MASHQLAR
VOSITASIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

UDK: 373.2.015.31:796

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Muxitdinova Nigora Mexriddinovna

Ma'ktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish 3

Мухитдинова Нигора Мехриддиновна

Совершенствование механизма интеллектуального развития дошкольников посредством физических упражнений 21

Mukhitdinova Nigora Mehriddinovna

Improving the mechanism of intellectual development of preschoolers through physical exercises 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUXITDINOVA NIGORA MEXRIDINOVNA

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY MASHQLAR
VOSITASIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5355 - raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Adizov Baxtiyor Rahmonovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rahimova Surayyo Saloxiddinovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04-raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil «25» 09 soat 10-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A/1519 raqam bilan ro'yxatga olingan) (manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «13» 09 kuni tarqatildi.

(2023 yil «13» 09 dagi 1 raqamli restr bayonnomasi).



S.Q. Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.F. Atoyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d (PhD), dotsent

H.O. Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilm-fan namoyondalari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning muayyan sohasi shaxs rivojlanishida jismoniy faoliyat bilan intellektual qobiliyatlar uzviy bog‘liq, degan ilmiy g‘oyalar mavjud. Rivojlangan xorijiy davlatlar Janubiy Koreya, Germaniya, Buyuk Britaniya (CIS International School), Ispaniya, AQSh (Early Childhood Education) maktabgacha ta‘lim tizimida: matematik, musiqiy, tasviriy va badiiy san‘at; (International Preschool Curriculum) tolerantlik, ochiqlik, liderlik fazilati va qobiliyatlarni rivojlantirish dasturiga alohida e‘tibor qaratilgan. Yevropa mamlakatlarida maktabgacha ta‘lim tizimida mavjud muammolar yechimiga ilm-fan va jamiyat taraqqiyotidagi eng muhim bosqich deb e‘tirof etiladi.

Dunyoning Amerika, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlardagi maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim tizimini rivojlantirish, bolalarni jismoniy faoliyati va aqliy qobiliyatini rivojlantirishga doir olib borilayotgan tadqiqotlar pedagogikaning dolzarb muammosi sifatida o‘rganilmoqda. Jumladan, bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, tevarakatdagi voqea-hodisalarni to‘liq ongda aks ettira olish qobiliyatini jismoniy mashqlar vosita rivojlantirishga doir zamonaviy innovatsion texnologiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish borasidagi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda o‘zib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga samarali ta‘lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta‘limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta‘lim tizimida muhim vazifalar belgilangan bo‘lib, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi, shu jumladan, ularning hissiy holatini himoya qilish va mustahkamlash, maktabgacha yosh davrida bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratish, ularning individualligini, o‘ziga xos qobiliyati va intellektual salohiyatini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishi kognitiv jarayonlar majmuasi – diqqat, idrok, fikrlash, xotira, tasavvur bilan belgilanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi asosan umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlanadi. Bunda bolani aqliy rivojlantirish va unga tegishli ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay‘at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Ilk qadam” Davlat o‘quv Dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma‘naviy me‘yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashlari, ularni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon ekanligi ta‘kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”, 2020-yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti” to‘g‘risida, 2020-yil 9-mart 132-son “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-son “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablari”, 2020-yil 27-martda 54-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ilm yo‘li” variativ dastur (6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash) hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi natijalari respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy mashqlar vositasida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga oid pedagogik-psixologik masalalar A.N.Livitsin, K.M.Mahkamjonov, F.A.Raimbekova, T.S.Usmonxo‘jayev, L.Z.Xolmurodov kabi bir guruh olimlarning ilmiy-amaliy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari O.V.Berejnova, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojest, D.B.Elkonin, N.F.Kulinko, G.P.Leskova, T.I.Osokina, M.G.Sorokovalar jismoniy mashqlar bolaning barkamol rivojlanishida muhim vosita ekanligi, jismoniy faollik bolada o‘z xatti-harakatlarini boshqara olishi hamda ruhiy holatining yaxshilanishi va bularning barchasi o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirishini ta’kidlaganlar. E.I.Adashkyavichene, E.N.Vavilova, V.G.Grishin, M.M.Kontorovich, L.I.Mixaylova, T.I. Osokinalarning tadqiqotlarida bolalarga sport va harakatli o‘yinlarni o‘rgatishning mazmuni, vosita, usul hamda pedagogik shart-sharoitlari atroflicha yoritilgan.

Xorij olimlari S.X.Ballok, B.X.Djons, Dj.Gilkrist, S.V.Marshall, G.D.Myer, A.D.Faigenbaum, N.M.Edwards, J.F.Clark, T.M.Best, R.E.Sallis, E.Frishenshlager, G.Djlar jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanmagan bolalar hech qachon harakat qobiliyatlari nuqtai nazaridan o‘zlarining genetik salohiyatini to‘liq rivojlantirmaydilar, degan dalilni ilgari surgan.

Tadqiqotning dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2017-2022 yillarga mo‘ljallangan “Barkamol avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish pedagogik zaruriyatligini aniqlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan modelni takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish hamda samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlaridagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining pedagog va psixologlari, jismoniy tarbiya yo‘riqchilari hamda tarbiyalanuvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish jarayoni mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, texnologiyalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, sotsiometrik (suhbat, anketa, test), pedagogik-psixologik hodisalarning tizimli tahlil, pedagogik eksperiment, matematik-statistik metod hamda natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishga qaratilgan jismoniy-variantiv topshiriqlarni kiritish hamda bolaning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik funksiyalar mazmuni va uning didaktik ta‘minoti (metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar, didaktik topshiriqlar tizimi)ga sog‘lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi tarbiyaning kompetensiyaviy uzviylikiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarning intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayon, tarbiyalanuvchida aqliy faoliyatning o‘sishi, kognitiv-psixik faoliyatning motivatsion, emotsional, mazmunli, faoliyatli yondashuv asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Evrika” 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish elektron ta‘lim resursi yaratilib, tarbiyalanuvchilarda topshiriqlarni qabul qilish, o‘z harakatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish, dialogik va izchil, leksik jihatdan monologik nutq ko‘nikmalarini dinamik rivojlantirish elementlari asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish texnologiyasi tarbiyalanuvchilarning jismoniy hamda intellektual salohiyatini subyektiv, individual, refleksivlik buyumlarni turli xil analizatorlar yordamida tashxislash, murakkab konstruksiyalarni yig‘ish va ajratish hamda

maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida maqsadga yo'naltirilganlik, ehtiyojlarni anglash, ongli intizomni izchil ta'minlash asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot ishi natijasida jismoniy mashqlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirishning mazmuni ilmiy jihatdan asoslandi va tarkibiy qismlari tavsiflandi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini intellektual rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi;

maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Evrika" 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish nomli elektron ta'lim resursi yaratilib amaliyotga tatbiq etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchilari uchun "Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmlari" nomli dastur ishlab chiqilgan;

maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik asoslanilganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligi, jismoniy mashqlar vositasida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini intellektual rivojlantirishning pedagogik xususiyatlariga oid ilmiy-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar hamda uslubiy tavsiyalar bilan boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jismoniy mashqlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish jarayonining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, mexanizmi va uni tashkil etish yo'llari, shakllari, metodlarini qo'llashga doir tavsiyalardan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini boyitish, pedagog-tarbiyachilari, jismoniy tarbiyani amalga oshirishga bevosita rahbarlik qiladigan, jismoniy tarbiya yo'riqchilarining pedagogik mahoratini takomillashtirishga doir yo'riqnomalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishda hamkorlik, loyihaviy qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlar orqali asoslanganligi "Bolalar jismoniy tarbiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi "356" son buyrug'i, 356/7-055 Raqamli nashr

guvohnomasi). Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishda kichik guruhlarda ishlash, shaxsiy-ijodiy, hissiy-amaliy mexanizmlari, bolalarning jismoniy va psixik salomatligi, shu jumladan ularga ishontirish, undash, namuna ko'rsatish, ularning individualligini, o'ziga xos qobiliyati va intellektual salohiyatini rivojlantirishga oid materiallaridan "Sport mening taqdirimda", "Kelajak egalari" teleko'rsatuvlarida foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 23-iyundagi 02-09-140 son ma'lumotnomasi). Natijada, bolalarda jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirishga erishilgan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirishga xizmat qiluvchi jismoniy mashqlar tizimini ehtiyojlarini anglash, maqsadga yo'naltirish asosida takomillashtirish, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mazmuni va uning didaktik ta'minotini takomillashtirishga doir taklif hamda tavsiyalardan PZ-2014-0906083753 – "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifat va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi" (2015-2017) mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish darajasini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan jami 34 ta ilmiy nashr, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola: 7 ta respublika va 9 ta xorijiy jurnallarda, 4 ta respublika tezisi va 10 ta xalqaro tezis nashr etildi. Intellektual mulk agentlining 2 ta mualliflik guvohnomasi olindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari**" deb

nomlangan birinchi bobida maktabgacha jismoniy tarbiya va sport tizimidagi fanlarga oid tasavvurlarni shakllantirishga oid yondashuvlarning pedagogik-konseptual asoslari, xorijiy tajribalar, maktabgacha va jismoniy tarbiya, sport tizimini modernizatsiyalashning afzalliklari va imkoniyatlari yoritib berilgan.

Tadqiqotga oid kuzatish va tajribalarga ko'ra, uzluksiz ta'limning maktabgacha ta'lim davri 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Poydevor qanchalik kuchli bo'lsa, bino shunga mos ravishda baland va mustahkam bo'ladi. Bolaning tarbiyasi, rivojlanishiga qanchalik ko'p e'tibor qaratilsa, u umumiy rivojlanishda ko'proq muvaffaqiyatga erishadi, fanda, mehnatda ildamlilik kasb etib jamiyat uchun foydali shaxs bo'lib shakllanadi. Bu davrda bolaning bosh miyasi, organizmi sifat va funksional jihatdan takomillashadi.

Bolani maktabga har tomonlama tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismi ularni aqliy va jismoniy jihatdan tarbiyalashdan iborat.

Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiya vositasi sifatida bajariladigan maxsus harakatlar, shuningdek, turli mashqlarni o'z ichiga olgan bolaning murakkab faoliyat jarayonidir. Bu esa ularda hayotiy ko'nikmalarini yaxshilash va bolaning ma'naviy rivojlanishiga yordam berishi uchun qo'llaniladi. "Mashq" atamasi vosita harakatining takrorlanishini anglatadi.

Jismoniy mashq – ong ta'siri ostida shartlangan harakatlarni jismoniy tarbiya qonuniyatlariga muvofiq holda tananing ayrim bo'g'imlari orqali bajariladigan ixtiyoriy xatti-harakatlar yig'indisidir (muallif ta'rifi).


Intellekt (lotincha: *intellects* – bilish, tushunish, idrok qilish) – insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati.

Ma'lumki, sport faoliyati somatik kasalliklar va patologik xatti-harakatlardan himoya qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish keskin xatti-harakatlar va o'zini o'zi boshqarish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Muntazam jismoniy faollik, shuningdek, qon aylanish va miyani kislorod bilan ta'minlashni yaxshilashga, suyak va mushaklarning zichligini mustahkamlash va stressga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy faollik jismoniy va ruhiy salomatlik bilan bog'liqligi aniq bo'lsa-da, jismoniy faoliyat va kognitiv faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik qo'shimcha o'rganishni talab qiladi.

Kognitiv funksiyalarga quyidagilar kiradi: xotira, diqqat, vizual-fazoviy va ijro etuvchi funksiyalar. Murakkab kognitiv jarayonlarga fikrlash (mavhum, sabab, ijodiy fikrlash va rejalashtirish) va til funksiyalari kiradi. Ushbu masalaning muhimligiga qaramay, bolalarning rivojlanish davrida sport va kognitiv faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud.

Jismoniy mashqlarni bajarish orqali bolalar o'z tengdoshlari hamda kattalar bilan ijobiy munosabatda bo'ladi. Bu bolada ijtimoiy, hissiy rivojlanish, jamoaviy ish, muloqot, o'z-o'zini tarbiyalash kabi muhim ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Jismoniy mashq bolalar uchun keng ko'lamlilik muhim afzalliklarga ega bo'lib, bu borada tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini asoslaydi.

1-rasmda bola, atrof-muhit – jamiyat, turli sport turlari bilan shug‘ullanishga ta’sir etuvchi shart-sharoit, shaxslararo va ichki omillar hamda sportning jismoniy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy ahamiyati o‘rtasidagi munosabat ko‘rsatilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Jismoniy mashqlar asosida bolalarni intellektual rivojlantirishning konseptual tuzilmasi

Jumladan, olimlarning bir qator tadqiqotlarida sportning ijobiy ta’siri xususida fikrlar keltirilgan, ayniqsa ushbu davrda intensiv rivojlanadigan, ijro etuvchi funksiyalar, shuningdek, muntazam va tartibli bajarilgan jismoniy mashqlarning ijobiy ahamiyati ko‘rsatilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga jismoniy harakatlarni o‘rgatishning asosiy shartlaridan biri sifatida jamoada ijobiy his-tuyg‘ularni olib kirish, bolalar o‘rtasida do‘stona muhitni o‘rnatishdir.

Imitatsiya – bolani faollashtiradigan his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Jismoniy mashq bolaning nutqini rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi – sog‘lom, quvnoq, chidamli, jismonan barkamol va ijodiy rivojlangan bolani tarbiyalashdir. Bolani yoshiga, anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olib tanlangan jismoniy tarbiya uni sog‘lomlashtirishga hamda tarbiyalanuvchida oqilona ongli harakatlarni shakllantirish, o‘z tajribasini to‘plash va uni kundalik hayotga tadbiiq qilishga imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarish, hayotiy va o‘quv vaziyatlarda mayda motorika ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur vazifalar bola hayotini himoya qilish va sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan. Jismoniy tarbiya bolani uyg‘un psixosomatik rivojlanishiga, tananing himoya funksiyalarini yaxshilashga, turli kasalliklarga, atrof-muhitning salbiy ta’siriga chidamliligini oshirishga, uning ish faoliyatini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga ularning bosh miya yarim shari shakllanishining yetukligi, bu qatlamda asab elementlarining farqlanishi (assotsiativ zonalar deb ataladi) ta'sir qiladi. Bunda muvaffaqiyatni belgilaydigan jarayonlar amalga oshiriladi. Bolada murakkab aqliy harakatlar, o'ng va chap yarim sharlarning rivojlanishi va ularning o'ziga xos intellektual funksiyalariga bog'liq bo'ladi. Chunki, bola miyasida chap yarim shar funksiyalarining to'liq shakllanishi uchun o'ng yarim shar funksiyalarini ham rivojlantirish zarur. Bolaning intellektual rivojlanishi vizual-samarali, vizual-majoziy va og'zaki-mantiqiy fikrlashning ishlashi bilan bog'liq. Idrok va xotira funksiyalari intellekt funksiyalariga nisbatan ancha rivojlanganligi sababli, bolaning tafakkuri vizual-majoziydan og'zaki-mantiqiygacha rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bola tafakkurining rivojlanishi elementar tahlil, sintez va tasniflashning aqliy harakatlarini shakllantirish bilan bog'liq.

Tadqiqot jarayonida ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirildi, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya jarayonida intellektual rivojlanishini maqsadli, mazmunli va texnologik ta'minlash masalalari hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi aniqlandi va bu ishlab chiqilgan tadqiqot muammosining dolzarbligini belgiladi.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobda jismoniy mashqlar vositasida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini intellektual rivojlantirish dinamikasi, bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmi, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari, mazmuni va yo'llari bayon etilgan.

Jismoniy mashqlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashda bolaga topshirilgan vazifalar darajasini bosqichma-bosqich murakkablashtirish, uning qobiliyatlari, ijodkorligini maksimal darajada rivojlantirishni inobatga olish muhim.

Jismoniy mashqlar vositasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi uning yosh va fiziologik xususiyatlari bilan asoslanadi. Bu davrda bolaning suyak-muskul tizimi shakllanishda davom etib, uning organizmida rivojlanish davri kechayotgan bo'ladi. Ana shu holatning o'zi uning jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Ko'p aqliy mehnat talab etadigan mashg'ulotlarda vaqti-vaqti bilan jismoniy daqiqalarni o'tkazib turishning o'zigina bolaning yuqorida aytib o'tilgan ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli hisoblanmaydi. Shu maqsadda jismoniy mashqlardan maqsadli va o'rinli foydalanish zarurdir.

Bolalarni intellektual jihatdan rivojlantirishda jismoniy mashqlardan foydalanish texnologiyasi ma'lum metodik talablarga javob berishi, ya'ni quyidagi mezonlariga mos kelishi muhimdir:

1) konseptuallik: jismoniy mashqni tanlashda maqsadni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan har qanday aniq ilmiy nazariyaga tayanish; 2) izchillik: yaxlitlik, jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha tarkibiy elementlarining o'zaro bog'liqligi, shu jumladan: jismoniy mashqni tanlashning ilmiy asosi sifatida

tushuniladigan konseptual asos, tarkib komponenti, mashg'ulot qismi (mashq jarayonini tashkil etish, ishtirokchilarining jismoniy faoliyat usuli va shakli pedagog-tarbiyachi tomonidan to'g'ri tanlanishi); 3) nazorat qilish imkoniyati: diagnostik maqsadni belgilash, rejalashtirish, loyihalash, bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzatish; 4) samaradorlik: muayyan natijalarga erishish kafolati; 5) takrorlanuvchanlik: jismoniy mashqlardan turli shart-sharoitlarda foydalana olish qobiliyati. Shunday qilib, bolani jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mazmuni umuman olganda pedagogik usullar, shakllar, vositalar va psixologik-pedagogik shartlar majmuiga singdirilishi lozim.

Pedagog va sport yo'riqchisi aniq belgilangan modelga muvofiq ta'lim jarayonini rejalashtirish, olingan natijalarni baholash va uning doimiy monitoringini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi "Rasmi kublar" yordamidagi jismoniy mashqlar to'plamini quyida keltirildi. Bu jismoniy mashqlardan tashkil topgan o'yin "Evrika ombori" deb nomlanadi. Omborga kubiklarga harflarning alohida qismlarga ajratilib chizilgan belgisi mavjud bo'ladi. Ushbu kublar yordamida harflarni yasash orqali bolalar o'qishga o'rgatiladi. Jismoniy mashqlardan tashkil topgan o'yin, tabiiy ravishda bolalarda og'zaki-mantiqiy fikrlash va yodlashni rivojlantirish, savodli yozish ko'nikmalarini shakllantirish, so'z boyligini sezilarli darajada oshirish va nutq terapiyasi kamchiliklarini tuzatish uchun samarali hisoblanadi.


Jismoniy mashqlarni bajarish orqali bola atrofidagi tabiat – daraxt, gul, o't, hayvon va qushlar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. U fasl almashish hamda suv, qum, qorning xususiyatlarini o'rganadi. Shuningdek, so'z boyligi sezilarli darajada boyiydi, xotira, fikrlash va tasavvuri rivojlanadi. Shunday qilib, maktabgacha yoshda bolalarni jismoniy tarbiyalashga e'tibor qaratgan holda, pedagog bir vaqtning o'zida bolani kinestetik ta'lim asoslari bilan tanishtiradi, uni maktabga tayyorlaydi.

Bolaning ijodiy, ko'p qirrali va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga ko'maklashish vositasi sifatida jismoniy mashqlarining muhimligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Tanlangan maxsus jismoniy mashqlar bolani jismoniy, aqliy, hissiy-irodaviy sohalarini rivojlanishiga xizmat qilishi lozim.

Jismoniy tarbiya jarayonida quyidagi tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: kundalik jismoniy mashqlarga ehtiyoj; mustaqil harakat faoliyatida jismoniy mashqlardan o'rinli va oqilona foydalanish ko'nikmasining mavjudligi; harakatlarning nafisligi, plastikligi, ifodaliligini egallash; mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik.

Namuna tariqasida taqdim qilingan jismoniy mashqlardan tashkil topgan o'yinlar bolaning aqliy jarayonlarini rivojlantirish: diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, nutq, nozik vosita qobiliyatlari; ranglar va shakllarni, harflar va raqamlarni eslab qolish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni inobatga olib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlanish tuzilmasi quyidagi ko'rinishda tasvirlandi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlanish tuzilmasi

Jismoniy tarbiya mashg'uloti bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan uchta bilim bloki ajratildi: "Mening tanam"; "Harakatlar

dunyosi”; “Sport buyumlari dunyosi”. Har bir blok uchun asosiy mavzular ko‘rsatilgan. Mashg‘ulot jarayonini tashkil etish shakllarini tanlashda aqliy va motorli rivojlanish muammolarini hal qilishda eng samarali, ularning ommaviyligi, amaliyligi, yo‘nalishi va boshqalar hisobga olindi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyaning bir nechta bunday shakllari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi: jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, kun davomidagi jismoniy madaniyat va sog‘lomlashtirish ishlari, mustaqil harakatlanish, ochiq havodagi mashg‘ulotlar va uy vazifalari. Tadqiqot doirasida tashkil etilgan tizimli ta‘limning asosiy shakli hisoblangan – jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir (1-jadvalga qarang).

1 -jadval

Jismoniy tarbiya jarayonida bolaning aqliy rivojlanishiga qaratilgan bilimlar mazmuni

Bilim bloki	Asosiy mavzular
Mening tanam	Skelet va mushaklar. O‘shish va rivojlanish. Miya tananing boshqaruv markazi. Aylanma. Nafas olishga yordam beruvchi organ. Beshta sezgi. Salomatlik va shaxsiy gigiyena
Harakatlar dunyosi	Harakatlarning asosiy turlari (nomi, ularni amalga oshirish usullari, texnologiyaning asosiy elementlari). Umumiy rivojlanish mashqlari (asosiy boshlang‘ich nuqtalari va maqsadi). Asosiy sport turlari (nomi, kerakli jihozlar, maqsad). Ochiq o‘yinlar (nom va qoidalar)
Sport buyumlari dunyosi	Sport jihozlari. Shaxsiy sport buyumlarining xususiyatlari va maqsadi (to‘p, arqon, bom va boshqalar). Atrofimizdagi sport buyumlari (toshlar, qor to‘plari, bo‘sh qutilar va boshqalar)

Maktabgacha tarbiya amaliyotida tananing jismoniy ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya mashg‘ulotini uch qismli (uch bosqichli) tuzilmasi qabul qilinadi. Kirish (yoki tayyorgarlik), asosiy va yakuniy qismlar mavjud.

Shu bilan birga, mashg‘ulotni tashkillashtirishda jismoniy mashq va vositalarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mashq va vosita bolani jismoniy tarbiyalash orqali aqliy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi zarur. Bu bilan bolaning jismoniy rivojlanishi, uning tana a‘zolaridagi ba‘zi bir nuqsonlarni korreksiyalash orqali aqliy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababli mashg‘ulotning tashkiliy jarayon deb ataladigan dastlabki bosqichi mustaqil qismga bo‘linib, mashg‘ulot bosqichlarining tarkibiy qismi (bosqichlari) soni to‘rttagacha oshiriladi. Dastlabki qism ko‘rgazmali tashkil qilinib, unda jismoniy tarbiya mashg‘ulotining mazmuni diagramma yoki chizmalarda tasvirlanadi. Mashg‘ulotning bunday tuzilishi jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va bolalarga mashg‘ulot jarayonida tezroq hamda bir faoliyat turidan ikkinchisiga o‘tishda oson harakat qilish imkonini beradi.

Mashg‘ulotning dastlabki qismi bolalar aqliy faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkil etish, diqqatni bajariladigan jismoniy mashq faoliyatiga qaratish, qiziqtirish va tegishli hissiy kayfiyatni yaratish, mashg‘ulotning o‘quv maqsadlarini ochib

berish, diagramma, chizma, rejalarni dastlabki tahlildan o'tkazish va yetakchi o'yinni aniqlashga qaratiladi.


Mashg'ulotning tayyorgarlik bosqichida bolaning diqqat-e'tibori va yuqori darajadagi konsentratsiyasini talab qiladigan vazifalar nazarda tutiladi. Mashg'ulotning asosiy qismida jismoniy tarbiya yo'riqchisi tomonidan bolani aqliy rivojlantiruvchi vazifalar, ya'ni bolalarning murakkab vosita harakatlarini ongli ravishda assimilyatsiya qilishiga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar tanlanadi.

Yakuniy qismda, bolaning harakat faolligi asta-sekin kamayib, intellektual rivojlantiruvchi vazifalar yanada murakkablashadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotining turli qismlarida bolaga berilgan aqliy rivojlanish vazifalari uni jismoniy jihatdan rivojlantirish vazifalari bilan kombinatsiyalanib, bir xil ta'sir kuchiga erishishi ta'minlanadi.

Faoliyatning psixologik va rivojlantiruvchi ta'limning pedagogik nazariyasining konseptual qoidalarini, shuningdek, shaxsning ta'limdagi faoliyatining didaktik tamoyillari va ulardan kelib chiqadigan aqliy rivojlanish bilan bog'liq holda o'rganishning yetakchi rolini hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini texnologik qo'llab-quvvatlashning pedagogik shartlarini aniqlashga harakat qilindi. Bu o'z navbatida ta'lim jarayonini tashkil etish vositalari, usullari, shakllari va faoliyat turlari bilan bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan jismoniy mashg'ulotlarda ularning intellektual rivojlanishiga yo'naltirilgan bir qator vazifalar aniqlandi. Bular: kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish; aqliy harakatlar va taassurotlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish; maktabgacha ta'lim tashkilotida jismoniy tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning, somatognostik funksiyalarini rivojlantirish – tana sezuvchanligi (mushak-motor sezgilari, kinestetik in'ikoslar va vosita ko'rinishlarining farqlanishi va xabardorligini) oshirish; ixtiyoriy diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirish; bevosita va bilvosita xotirani rivojlantirish; narsalarning ichki xossalari va ularning munosabatlari (tahlil, sintez; taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish) bilan aqliy harakatlarni shakllantirish orqali aniq tushunchalar darajasida og'zaki va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; rejalashtirish va mulohaza yuritishning aqliy harakatlarini shakllantirish; dialogik va izchil, leksik savodli monolog nutqini rivojlantirish; elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

